



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 429-434 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KORXONALARDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH



Umarova Iroda Sadriddinovna

“Trastbank” XAB,
Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta
operatsiyalari departamenti, Valyuta operatsiyalari
bo'yicha hisobotlar bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Korxonalarda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Ushbu maqolada innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, vechur kapital, davlat qo'llab-quvvatlovi va xususiy investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya faoliyati, moliyalashtirish, vechur kapital, davlat qo'llab-quvvatlovi, investitsion muhit, texnologik rivojlanish.

Аннотация: Финансирование инновационной деятельности на предприятиях является одним из ключевых факторов экономического роста и технологического развития. В данной статье рассматриваются современные механизмы финансирования инновационных проектов, существующие проблемы и пути их решения. Также анализируется роль венчурного капитала, государственной поддержки и привлечения частных инвестиций.

Ключевые слова: инновационная деятельность, финансирование, венчурный капитал, государственная поддержка, инвестиционная среда, технологическое развитие.

Abstract: Financing innovation activities in enterprises is one of the key drivers of economic growth and technological advancement. This article examines modern mechanisms for financing innovative projects, existing challenges, and possible solutions. It also highlights the importance of venture capital, government support, and attracting private investments.

Keywords: innovation activity, financing, venture capital, government support, investment environment, technological development.

Kirish

Innovatsiya – zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri bo'lib, u korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, hamda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. XXI asr sharoitida sanoat tarmoqlarining texnologik rivojlanishi va raqamli transformatsiyasi

global miqyosda yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni amalga oshirish korxonalar uchun katta moliyaviy resurslar va uzoq muddatli kapital talab qiladi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, odatda, ichki va tashqi manbalar, jumladan, davlat dasturlari, xususiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari, bank kreditlari va vechur kapital orqali amalga oshiriladi. Biroq, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi hali to'liq shakllanmagan va muayyan moliyaviy cheklovlar mavjud. Mamlakatda iqtisodiy diversifikatsiya jarayonining tezlashuvi va innovatsion ekotizimning rivojlanishi bilan birga, korxonalar oldida moliyaviy resurslarni jalb qilish va samarali taqsimlash muammolari yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muayyan dasturlar amalga oshirilmoqda. "Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030" doirasida ilmiy-tadqiqot institutlari, texnoparklar, innovatsion klasterlar va startap ekotizimi rivojlantirilmoqda. Lekin, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashmaganligi, moliyaviy risklarning yuqoriligi, xususiy investorlarning ishtirok darajasining yetarli emasligi ushbu sohaning rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston oxirgi yillarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'lida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirilmoqda. Innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida bir qator dasturlar va tashabbuslar joriy etildi. Xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus jamg'armalar tashkil etilgan, davlat tomonidan grantlar va subsidiyalar ajratilmoqda. Ammo bu resurslar iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli emas.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda davlat va xususiy sektor o'rtaqidagi samarali hamkorlik innovatsiyalarni moliyalashtirishda muhim o'r'in tutadi. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus davlat dasturlari va soliq imtiyozlari joriy etilgan. Xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekistonda innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu masala ko'plab xorijiy tadqiqotlarda chuqur o'rganilgan bo'lib, innovatsiyalarni moliyalashtirishda samarali yondashuvlar va mexanizmlar taqdim etilgan.

Xorijiy tadqiqotlar innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning turli omillarini yoritadi. Masalan, "*National Innovation Systems*" (Milliy innovatsion tizimlar) asarida Nelson R. R. [1] davlat va xususiy sektorning innovatsiyalarni moliyalashtirishdagi o'zaro aloqalari haqida so'z yuritadi. Unda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy tadqiqotlar xususiy sektor tomonidan tijoratlashtirilishi muvaffaqiyatli innovatsion tizimlarni yaratishda asosiy omil sifatida ta'kidlangan.

Janubiy Koreyada amalga oshirilgan "*K-Startup Initiative Annual Report*" (K-Startup tashabbusi yillik hisobot) [2] tadqiqotida innovatsion startaplarni moliyalashtirishning

natijalari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, davlat tomonidan taqdim etilgan grantlar va subsidiyalar startap loyihalarining muvaffaqiyatini ta'minlagan va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirgan.

Shuningdek, Germaniyada *Fraunhofer modeli* asosida davlat va xususiy sektor o'rta sidagi hamkorlik innovatsiyalarni moliyalashtirishda muvaffaqiyatli qo'llaniladi [3]. Ushbu modelda davlat tadqiqot institutlariga grantlar ajratadi, xususiy sektor esa amaliy loyihalarga investitsiya qiladi. Bu yondashuv iqtisodiyotda texnologik rivojlanishni ta'minlashda samarali hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda turli vositalardan foydalaniladi. Venchur kapitali bu borada yetakchi rol o'ynaydi. Mason va Harisonning "The Geography of Venture Capital Investments" (Venchur kapitali investitsiyalari geografiyasi) [4] asarida venchur kapitali fondlari orqali texnologik startaplarni moliyalashtirishning samaradorligi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv Shveytsariya va AQShda keng qo'llanilib, yuqori xavf va yuqori daromad keltiruvchi loyihalarning rivojlanishiga yordam beradi.

Grantlar va subsidiyalar ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim vosita sifatida ko'rildi. Masalan, AQShdagagi *Small Business Innovation Research (SBIR)* dasturi kichik biznes subyektlariga davlat grantlarini taqdim etib, iqtisodiyotning texnologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan [5].

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga qaratilgan dasturlar ham mavjud. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tashkil etilgan Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ammo xalqaro tajriba asosida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati mavjud.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektoring samarali hamkorligi, moliyalashtirish vositalarining diversifikatsiyasi va xalqaro tajribaning moslashuvi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar O'zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Mamlakatdagi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning global bozorlarda ishtirokini kuchaytirish uchun innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur. Ushbu bo'limda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar taklif etiladi.

1-jadval. O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishdagi asosiy muammolar

Muammo	Tavsif	Salbiy ta'siri
Moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi	Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilayotgan mablag'lar yetarli emas.	Innovatsion startaplarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, tadbirkorlarning yangi texnologiyalarni joriy etish

		imkoniyatini cheklaydi.
Bank kreditlarining yuqori foiz stavkalari	Banklar tomonidan innovatsion faoliyatni moliyalashtirish uchun taqdim etiladigan kreditlarning foiz stavkalari yuqori.	Yangi startap va kichik biznes subyektlari uchun kredit olish imkoniyati cheklanadi, moliyaviy risklar ortadi.
Xususiy sektor investitsiyalarining kamligi	Xususiy investorlarning innovatsion loyihalarga jalb qilinishi sust.	Innovatsion ekotizimning rivojlanishini sekinlashtiradi, iqtisodiyotda texnologik o'sish sur'atlari pasayadi.
Davlat grant va subsidiyalarining cheklanganligi	Innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli emasligi.	Innovatsion loyihalarni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun moliyaviy manbalar yetishmaydi.
Kapital bozorining rivojlanmaganligi	Innovatsion korxonalarning fond bozoriga chiqish imkoniyatlari cheklangan.	Venchur kapital va obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari past, investorlar uchun investitsion xavflar yuqori.

Manba: muallif ishlanmasi

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy muammolari moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi, bank kreditlarining yuqori foiz stavkalari, xususiy sektor investitsiyalarining kamligi hamda davlat grant va subsidiyalarining cheklanganligi bilan bog'liq. Bu omillar innovatsion ekotizimning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda va iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirmoqda. Shu sababli, mazkur muammolarni hal qilish uchun zamonaviy moliyaviy mexanizmlar va strategik yondashuvlar zarur.

2-jadval. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha taklif etilayotgan yechimlar

Yechim	Tavsif	Kutilayotgan natija
Davlat tomonidan ajratiladigan grant va subsidiyalar hajmini oshirish	Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish.	Innovatsion startap va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun qoshimcha moliyaviy resurslar yaratiladi.
Bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini pasaytirish va kafolat mexanizmlarini joriy etish	Innovatsion loyihalar uchun imtiyozli kreditlar taqdim etish va davlat kafolati mexanizmini rivojlantirish.	Kichik va o'rta biznesning moliyaviy resurslarga bo'lgan kirish imkoniyati oshadi, investitsion faollik ortadi.
Venchur kapital va xususiy investorlarni jalb qilish	Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish va vechur kapital fondlarini	Innovatsion korxonalarga uzoq muddatli investitsiyalar jalb qilinadi,

	rivojlantirish.	xususiy sektor ishtiroki ortadi.
Fond bozorini rivojlantirish va IPO mexanizmlarini kengaytirish	Innovatsion kompaniyalarning aksiyalarini ommaviy joylashtirish imkoniyatlarini yaratish.	Moliyaviy resurslarning diversifikatsiya qilinishi ta'minlanadi, kapital bozori rivojlanadi.
Xalqaro moliya institutlari va kredit liniyalaridan foydalanish	Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa xalqaro moliya institutlarining resurslaridan foydalanish.	Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha investitsion mablag'lar jalb qilinadi.

Manba: muallif ishlanmasi

Yuqorida 2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni rivojlantirish uchun turli xil moliyaviy mexanizmlar va strategik yo'naliishlarni amalga oshirish zarur. Davlat tomonidan qo'shimcha grant va subsidiyalar ajratilishi, bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining pasaytirilishi hamda vechur kapital va fond bozori rivojlanishi orqali innovatsion loyihalar uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratilishi mumkin. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish ham qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni rivojlantirish zamонавиқи iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'naliishlaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ushbu jarayonda qator muammolar mavjud. Moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi, bank kreditlarining yuqori foiz stavkalari, vechur kapitalning rivojlanmaganligi va davlat subsidiyalarining cheklanganligi innovatsion ekotizim rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillardan hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikasiya qilish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Innovatsion faoliyatga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larning samaradorligini oshirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi. Davlat tomonidan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur bo'lib, buning uchun innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida grant va subsidiyalar hajmini oshirish, startaplar hamda kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kredit va soliq yengilliklarini kengaytirish, shuningdek, raqobatbardosh texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun maxsus davlat moliyaviy dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bank kreditlari va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga mo'ljallangan imtiyozli kredit liniyalarini yaratish, banklar tomonidan innovatsion korxonalar uchun maxsus moliyaviy xizmatlarni joriy etish va bank kreditlarining foiz stavkalarini pasaytirish orqali kafolat mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Venchur kapital va xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun venchur fondlar va inkubatsiya markazlarini rivojlantirish, xalqaro investitsion fondlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda kapital bozorini rivojlantirib, startaplarning IPOga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion ekotizimni rivojlantirish maqsadida universitetlar, ilmiy markazlar va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda texnologik parklar va klaster tizimini rivojlantirish lozim.

Xalqaro moliyaviy institutlar va fondlar bilan hamkorlikni rivojlantirish doirasida Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro kredit liniyalaridan foydalanish va chet el investorlari uchun qulay investitsion muhit yaratish orqali innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish mumkin. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi innovatsion rivojlanish jarayonlarini tezlashtiradi, korxonalarning texnologik salohiyatini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nelson, R. R. *National Innovation Systems: A Comparative Analysis*. Oxford University Press, 1993.
2. Ministry of SMEs and Startups. *K-Startup Initiative Annual Report*. Seoul, 2022.
3. Fraunhofer Society. *Innovation Financing in Germany*. Fraunhofer Report, 2021.
4. Mason, C., & Harrison, R. *The Geography of Venture Capital Investments*. Regional Studies, 2002.
5. Small Business Administration. *SBIR Annual Performance Report*. Washington DC, 2021.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

